

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING 8-SINF BIOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL USULLAR ORQALI TA'LIM JARAYONINING TARBIYAVIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Madina Imomova,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi instituti tayanch doktoranti

imomovamadina@gmail.com

+998935091785

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf biologiya darslarida interfaol ta'lim usullaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonining tarbiyaviy jihatlarini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, biologiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan interfaol metodlarning o'quvchilarda mas'uliyat, sog'lom turmush tarzi, ekologik madaniyat va ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi. Tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari natijalari asosida interfaol metodlar o'quvchilarning bilim sifati bilan bir qatorda tarbiyaviy ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Biologiya ta'limi, interfaol metodlar, aqliy hujum, xaritalash metodi, tarbiyaviy ta'lim, 8-sinf biologiya, kompetensiyaviy yondashuv, sog'lom turmush tarzi, ekologik tarbiya.

УЛУЧШЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ АСПЕКТОВ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ В 8-М КЛАССЕ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ

Аннотация: В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются вопросы совершенствования образовательных аспектов учебного процесса посредством использования интерактивных методов обучения на уроках биологии в 8-м классе общеобразовательных средних школ. Также раскрывается роль интерактивных методов, применяемых в преподавании биологии, в формировании у учащихся ответственности, здорового образа жизни, экологической культуры и социальной активности. На основе результатов организованной экспериментальной работы обосновывается, что интерактивные методы оказывают положительное влияние на качество знаний учащихся, а также на их образовательные показатели.

Ключевые слова: Биологическое образование, интерактивные методы, мозговой штурм, метод картирования, педагогическое образование, биология 8-го класса, компетентностный подход, здоровый образ жизни, экологическое образование.

IMPROVING THE EDUCATIONAL ASPECTS OF THE EDUCATIONAL PROCESS THROUGH INTERACTIVE METHODS IN 8TH GRADE BIOLOGY LESSONS OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Annotation: *This article analyzes the issues of improving the educational aspects of the educational process through the use of interactive teaching methods in 8th grade biology lessons of general secondary schools from a scientific, theoretical and practical perspective. It also reveals the role of interactive methods used in teaching biology in the formation of responsibility, healthy lifestyle, ecological culture and social activity in students. Based on the results of the organized experimental work, it is substantiated that interactive methods have a positive effect on the quality of knowledge of students, as well as on their educational indicators.*

Keywords: *Biology education, interactive methods, brainstorming, mapping method, educational education, 8th grade biology, competency-based approach, healthy lifestyle, ecological education.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifati bilan bir qatorda tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'quvchilarning nafaqat bilim olishini, balki ularning shaxs sifatida kamol topishini, ijtimoiy faolligini, mas'uliyatini va sog'lom hayotga bo'lgan munosabatini shakllantirishni talab etadi. Ayniqsa, biologiya fani mazmun-mohiyati jihatidan tarbiyaviy imkoniyatlarga boy bo'lib, inson salomatligi, tabiatni muhofaza qilish, ekologik madaniyat, gigiyena va sog'lom turmush tarzi kabi tushunchalarni o'quvchilarga singdirishda muhim rol o'ynaydi.

An'anaviy dars usullarida o'qituvchi markazda bo'lib, o'quvchi passiv tinglovchi sifatida qatnashishi kuzatiladi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijtimoiy faollik ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi. Shu sababli biologiya darslarida interfaol usullardan foydalanish orqali o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida jalb etish, ularning tarbiyaviy sifatlarini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Interfaol metodlar o'quvchilarning o'zaro muloqotda bo'lishi, fikr almashishi, hamkorlikda ishlashi orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga imkon yaratadi [1].

Maqolaning asosiy maqsadi – umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf biologiya darslarida interfaol usullardan foydalanish orqali ta'lim jarayonining tarbiyaviy jihatlarini takomillashtirish yo'llarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishdan iborat. Maqsad amalga oshirish uchun pedagogik adabiyotlar

tahlil qilindi, tajriba-sinov ishlari tashkil etildi hamda olingan natijalar umumlashtirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta'limda interfaol metodlardan foydalanish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur masala bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, amerikalik pedagog J.Dewey ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki va tajribaga asoslangan o'qitish g'oyalarini ilgari surgan bo'lsa, L.Vygotskiy ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan [2]. J.Bruner esa o'qitishda kashfiyotga yo'naltirilgan yondashuv orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham interfaol metodlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni alohida qayd etilgan. N.Sayidahmedov pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishini ko'rsatib bergan [3]. R.Jo'rayev interfaol metodlar yordamida o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish mumkinligini asoslagan. Biologiya fanini o'qitishda tarbiyaviy jihatlar masalasi esa A.Abduqodirov, S.Qodirov va boshqa olimlar ishlarida yoritilib, biologiya darslari orqali ekologik va sog'lom turmush tarzi tarbiyasini shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan [4].

Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy ishlarga tayangan holda, 8-sinf biologiya darslarida interfaol metodlarning tarbiyaviy samaradorligini amaliy tajriba asosida o'rganishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

O'rganiladigan metodlar. Tadqiqot jarayonida quyidagi interfaol metodlardan foydalanildi:

Aqliy hujum – o'quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantirish;

"Aqliy hujum (Brainstorming) metodi"

Aqliy hujum yoki "brainstorming" – bu jamoaviy tarzda amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish uchun g'oyalarni tezkor va erkin shaklda yuzaga keltirish metodidir. Ushbu usulda ishtirokchilar murakkab masalani hal qilishga intilib, o'zlarining shaxsiy g'oyalarini bildiradilar, ularga tanqidiy baho bermaslik sharti

bilan yangi fikrlar hosil qiladilar. Keyinchalik ushbu g'oyalar tahlil qilinadi, eng oqilona, samarali va amaliy jihatdan maqbul variantlar ajratib olinadi, muhokama qilinadi va rivojlantiriladi, shuningdek, ularning asosli ekanligi yoki qobiliyati baholanadi.

Aqliy hujum usulining asosiy maqsadi – o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tahlil qilishga qiziqtirish, ijodiy fikrlashni rag'batlantirish, fikr almashish va muloqot madaniyatini rivojlantirishdir. Shu bilan birga, bu metod tashqi bosim ostida fikrlashni kamaytiradi, ijodiy vazifalarni hal qilishda birlamchi qarashlarni kengaytiradi va yangicha yechimlarni izlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tarbiyaviy ahamiyati:

- O'quvchilarni mustaqil fikrlashga va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga o'rgatadi.
- Jamoaviy ishlash va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi.
- Fikr almashish va konstruktiv muloqot madaniyatini rivojlantiradi.
- Ijodiy, innovatsion va yangicha yechimlarni izlashga rag'batlantiradi.
- Tanqiddan qo'rqmasdan fikr bildirishga va yangi g'oyalarni sinashga o'rgatadi.

Aqliy hujumni samarali qo'llash qoidalar:

1. Bildirilgan g'oya va fikrlar darhol baholanmaydi va tanqid qilinmaydi.
2. Har bir taklif va g'oya hisobga olinadi.
3. Qancha ko'p g'oya paydo bo'lsa, shuncha yaxshi natija olinadi.
4. Bildirilgan g'oyalarni kengaytirish, rivojlantirish va qo'shimcha qilish mumkin.
5. G'oyalarni bildirish uchun aniq va qat'iy vaqt belgilanadi. Bu metodni quyida Odam va uning salomatligi darslikdagi mavzulardan biriga tatbi etib ko'ramiz.

Mavzu: Oshqozon-ichak kasalliklari va ularning oldini olish

Metod: **Aqliy hujum (Brainstorming)**

Maqsad: O'quvchilarni mavzu bilan tanishtirish va diqqatini jalb qilish.

O'qtuvchi: "Sizningcha, oshqozon yoki ichak bilan bog'liq qaysi kasalliklar eng ko'p uchraydi?" Tarbiyaviy jihat: O'quvchilar ilgari mavjud bilimlarini yuzaga chiqaradi. Diqqat va qiziqish uyg'onadi. Bu qoidalar doskaga yoziladi

1. Hech qanday g'oya tanqid qilinmaydi.

2. Har bir fikr e'tiborga olinadi.

3. Qancha ko'p g'oya, shuncha yaxshi.

4. G'oyalarni rivojlantirish mumkin.

5. G'oya bildirish uchun vaqt cheklangan. Bundan o'quvchilarda quydagicha tarbiyaviy jihatlar shakllanadi. Fikr almashish va konstruktiv muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilar: Odatdagi javoblar (8-sinf o'quvchilaridan kutish mumkin):

Oshqozon og'rig'i, qorin og'rig'i, Ishtaha buzilishi, oshqozon bezovtaligi, Diareya yoki ich ketish, Qorin shishishi, Ko'ngil aynishi, qusish. Tarbiyaviy nuqtai nazar: Bu javoblar o'quvchilarning ilmiy terminlarga hali to'liq ega emasligini ko'rsatadi, lekin ular shaxsiy tajriba yoki kuzatishlariga asoslangan fikrlarni bildirishi muhim. Shu orqali o'quvchilarni tadqiqiy g'oyalarni izlashga va muammo haqida chuqurroq o'rganishga rag'batlantirish mumkin.

O'qtuvchi: "Oshqozon-ichak kasalliklarining oldini olish uchun qanday choralar ko'rilishi mumkin?"

O'quvchilar erkin g'oyalar bildiradi: Sog'lom ovqatlanish, Gigiyena qoidalariga rioya qilish, Toza suv ichish, Jismoniy faollik, Shifokor ko'rigidan o'tish kabi fikrlarni bildiradi va quyidagi tarbiyaviy jihatga ega bo'ladi, mustaqil fikrlash, ijodiy yechimlarni topish va o'z salomatligiga mas'uliyatni oshiradi.

O'qtuvchi tahlil va saralash o'quvchilar bilan birga bildirilgan g'oyalar birlashtiriladi va muhim choralar ajratiladi: Sog'lom ovqatlanish, Gigiyena qoidalariga rioya qilish, Toza suv ichish, Jismoniy faollik, Shifokor ko'rigidan o'tish bundan kutiladigan tarbiyaviy jihatlari quyidagicha namoyon bo'ladi o'quvchilar muammoni tahlil qilish va samarali yechimlarni tanlashni o'rganadi.

O'qtuvchi : "Nega oshqozon-ichak kasalliklaridan saqlanishimiz muhim?"

O'quvchilar: 1. "Agar oshqozonimiz og'risa, darsga e'tibor qila olmaymiz va uy vazifasini qilish qiyin bo'ladi." 2. "Ichimiz bo'zilsa holimiz yo'q bo'ladi olmaymiz va

o'yinlarda ishtirok eta olmaymiz." 3."Oshqozonimiz bezovta bo'lsa, charchaymiz va tez charchab qolamiz." 4."Ovqat hazm bo'lmasa, kuchimiz kamayadi va uyda ham o'tirish qiyin bo'ladi." 5."Qo'lni yuvmasak yoki toza ovqat yemasak, oshqozonimiz kasal bo'lishi va bezovta qilishni boshlaydi." 6."Sog'lom bo'lsak, do'stlar bilan erkin o'ynaymiz va dam olishni zavqlanib o'tkazamiz." 7."Ovqatdagi vitamin va minerallar tanaga yetib boradi, shunda kuchimiz ko'p bo'ladi va o'sishimiz yaxshi bo'ladi." 8."Agar oshqozon-ichak kasalligi bo'lsa, u og'riq va bezovtalik tug'diradi, shuning uchun salomatlikni saqlash kerak." 9."Sog'lom bo'lsak, bayramlarda yoki sayohatlarda charchamay, zavqlanib qatnashamiz." 10."Oshqozon-ichakimiz to'g'ri ishlasa, maktabda, uyda va sportda ham hammasi yaxshi bo'ladi." Kabi fikrlarni bildiradi va uzlarida quyidagicha tarbiyaviy jihatlar shakllanadi, sog'lom turmush tarzini qadrlash, sog'lom turmush tarzining ahamiyatini chuqur tushunadi, hayotiy odatlar shakllantirish, mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, jamoadagi fikr almashish orqali o'quvchilar bir-birini tinglash, hurmat qilish va yordam berish odatini o'rganadi, shuningdek, hamkorlik va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu ularni hayotda jamoada ishlashga, boshqalar bilan murosaga kelishga va birgalikda muammoni hal qilishga o'rgatadi.

Xaritalash metodi

Oshqozon-ichak kasalliklari

- 1.Yallig'lanish kasalliklari
- 2.Yuqumli kasalliklar

Yallig'lanish kasalliklari

- 1.Gastrit - oshqozon shilliq qavati yallig'lanadi
- 2.Enterit -ingichka ichak yallig'lanadi
- 3.Kolit -yo'g'on ichak yallig'lanadi

Yallig'lanish kasalliklari (gastrit, enterit, kolit) sabablari

1. Noto'g'ri ovqatlanish -juda achchiq, yog'li yoki tez tayyorlangan ovqat oshqozon va ichak shilliq qavatini zararlashi mumkin.
2. Ovqatlanish tartibining buzilishi - ovqatni belgilangan vaqtda yemay, kech yoki tartibsiz ovqatlanish oshqozon-ichak faoliyatini izdan chiqaradi.

3. Ovqatni me'yoridan ortiq iste'mol qilish - bir vaqtning o'zida juda ko'p ovqat yeyish oshqozonga ortiqcha yuk tushiradi va yallig'lanishga sabab bo'ladi.

4. Ovqatni tez yutib yeyish - ovqat yetarli chaynalmagani uchun hazm jarayoni buziladi va oshqozon shilliq qavati bezovta bo'ladi.

5. Taomlarni sifatsiz tayyorlash - xom yoki haddan tashqari qovurilgan ovqatlar oshqozon va ichakni yallig'lantiradi.

6. Ovqat va suv tarkibidagi kimyoviy moddalar - mineral o'g'itlar, pestitsidlar va boshqa zararli moddalar ichak shilliq qavatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

7. Spirtli ichimliklarni muntazam iste'mol qilish - oshqozon shilliq qavatini yemiradi va surunkali yallig'lanish kasalliklariga olib keladi.

8. Infeksiya (bakteriya va viruslar) - notoza ovqat, iflos suv va yuvilmagan qo'l orqali oshqozon-ichakka tushib yallig'lanishni keltirib chiqaradi.

9. Stress va ruhiy zo'riqish - uzoq davom etgan asabiy holat oshqozon kislotasi ajralishini va ichak harakatini buzadi.

10. Surunkali kasalliklar -oldindan mavjud oshqozon yoki ichak kasalliklari yallig'lanish jarayonini kuchaytiradi.

Yuqumli kasalliklar

1. Ovqatdan zaharlanish (Salmonellyoz, Botulizm)- oshqozon-ichak bezovtaligi
2. Ichburug' (Dizenteriya)- Ichak infeksiyasi bilan ich ketish
3. Vabo (Xolera) (*Vibrio cholerae*)- asosan ingichka ichak infeksiyasi
4. Ichterlama (Qorin tifi) - asosan ingichka ichak, qisman yog'on ichak kasalligi
5. Yuqumli gepatit (yuqumli sariq kasalligi) - Jigar va oshqozon bilan bog'liq virusli infeksiya

6. Gijja kasalliklari

Salmonellyoz kasalligini sababi va uning belgilari

1. Eskirib qolgan taomlar
2. Ko'p vaqt muzxonada saqlangan taomlar(mikrob tirik bo'ladi)
3. Ko'ngli ayniydi
4. Qusadi
5. Qornining yuqori qismi og'riydi

Botulizm kasalligini sababi va uning belgilari

1. Havo kirmaydigan taomlarda-kanservalar qapqog'i ko'tarilib qoladi
2. Kolbasalar shishib yumshagani
3. Ko'ngil aynishi,
4. Qusish
5. Qorinda og'riq paydo bo'lishi
6. Og'iz va tilni qurishi

Ichburug' (Dizenteriya) kasalligini sababi va uning belgilari

1. Bir necha xil mikroblar tarqatadi
2. Idish-tavoq
3. Yuvmilmagan meva va sabzavotlar
4. Zararlangan tayyor taomlar
5. Tarqatuvchi uy pashsha(tanasida 6 milliyon, ichagida 280 millionga yaqin har xil yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi mikroblar bo'ladi)
6. Tez-tez ich ketishi
7. Qorin og'rig'i
8. Najasda shilimshiq yoki qon bo'lishi
9. Isitma

Vabo (Xolera) kasalligini sababi va uning belgilari

1. Ifloslangan ichimlik suvi orqali,
2. Yuvmilmagan meva-sabzavot va notoza ovqat orqali,
3. Gigiyena qoidalariga rioya qilinmagan sharoitda.
4. Kuchli ich ketish,
5. Tez suvsizlanish,
6. Holsizlik va umumiy ahvolning og'irlashishi.

Ichterlama (Qorin tifi) kasalligini sababi va uning belgilari

1. Ifloslangan ichimlik suvi orqali,
2. Notoza yoki yaxshi pishirilmagan ovqat orqali,
3. Yuvmilmagan qo'l va gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik orqali.
4. Ich ketish,
5. Qorin og'rig'i,
6. Holsizlik va bezovtalik,

- 7.Ba'zida ko'ngil aynishi va qusish
- 8.Uzoq davom etuvchi yuqori isitma
- 9.Bosh og'rig'i
- 10.Qorin dam bo'lishi
- 11.Ba'zan ich ketishi yoki qabziyat

Yuqumli sariq kasalligi (virusli gepatit) Gepatit A turi

- 1.Keltirib chiqaruvchisi - Gepatit A virusi (HAV).
- 2.Organizmga yuqish yo'li - ifloslangan suv va ovqat orqali, qo'lni yuvmaslik natijasida (og'iz–ichak yo'li).

Yuqumli sariq kasalligi (virusli gepatit) Gepatit B

- 1.Keltirib chiqaruvchisi - Gepatit B virusi (HBV).
- 2.Organizmga yuqish yo'li - qon orqali, steril bo'lmagan tibbiy asboblari, shpritslar, shuningdek onadan bolaga.

Yuqumli sariq kasalligi (virusli gepatit) Gepatit C

- 1.Keltirib chiqaruvchisi – Gepatit C virusi (HCV).
- 2.Organizmga yuqish yo'li – asosan qon orqali, steril bo'lmagan shpritslar, tibbiy va kosmetik asboblari (tatuировka, pirsing) orqali.

Gijja kasalliklarini keltirib chiqaruvchilar

- 1.Askarida (*Ascaris lumbricoides*) – yumaloq gijja
- 2.Ostritsa (*Enterobius vermicularis*) – bolalarda ko'p uchraydigan gijja
- 3.Tenya (qoramol va cho'chqa tasmasimon gijjalari)
- 4.Ankilostoma – qon so'ruvchi gijja
- 5.Exinokokk – ichki a'zolarida kista hosil qiluvchi gijja

Gijja organizmga yuqush yo'llari

- 1.Notoza qo'l orqali – qo'l yuvilmasdan ovqat yeyish gijja tuxumlarining og'iz orqali tushishiga sabab bo'ladi.
- 2.Yuvilmagan meva va sabzavotlar orqali – tuproq bilan ifloslangan mahsulotlar gijja tuxumlarini saqlab qoladi.
- 3.Xom yoki chala pishirilgan go'sht orqali – qoramol va cho'chqa go'shtida tasmasimon gijja lichinkalari bo'lishi mumkin.

4.Iflos suv orqali – qaynatilmagan yoki tozalanmagan suv gijja tuxumlarini organizmga olib kiradi.

5.Tuproq bilan bevosita aloqa orqali – yalangoyoq yurish yoki tuproqda o'ynash paytida ayrim gijjalar teri orqali kirishi mumkin.

6.Maishiy buyumlar orqali – sochiq, o'yinchoq, idish-tovoq orqali gijja tuxumlari yuqadi.

Bu metod murakkab va ko'p tushunchalarni o'z ichiga olgan mavzularni o'quvchilarga samarali yetkazishda xaritalash metodi asosida, ustun shaklda va rangli ajratilgan konspekt tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usul o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda, aniq va ixcham tarzda berishga xizmat qiladi.

Ta'limiy ahamiyati yirik bloklarga ajratiladi, har bir blok ichida kasallik nomi, zararlangan a'zo, sababi va belgilari ustun tarzda, raqamlar orqali beriladi, o'quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantiradi, asosiy tushunchalarni ikkinchi darajali ma'lumotlardan ajratib olishga o'rgatadi, eslab qolish va qayta tiklash (xotira) jarayonini yengillashtiradi.

Mazkur metod nafaqat bilim beradi, balki kuchli tarbiyaviy ta'sirga ham ega. O'quvchilar: o'z salomatligiga mas'uliyat bilan qarash, gigiyena qoidalariga amal qilish, sog'lom ovqatlanish va toza hayot tarzini tanlash zarurligini anglab yetadi.

Kasalliklar sabablari va ularning oqibatlarini mantiqiy zanjirda berilgani sababli, o'quvchi "nega bunday bo'ladi?" degan savolga o'zi javob topadi. Bu esa ongli intizom, sog'lom turmush tarzi va hayotiy mas'uliyatni shakllantiradi.

Yoshlarimizning sog'lom turmush tarzini tushunishi va biologiya fanidagi bilimlari biz ustozlarning tarbiyaviy va ilmiy mehnatiga bevosita bog'liq. O'quvchining inson tanasi, salomatlik va sog'lom ovqatlanishga bo'lgan qiziqishi kelajakda yurtimizda sog'lom, faol va kuchli avlodning yetishib chiqishiga, shuningdek, ilm-fan, tibbiyot va sog'liqni saqlash sohalarining rivojlanishiga mustahkam poydevor bo'ladi. Tarbiyaviy jihatdan, o'quvchilar o'z sog'ligiga e'tibor berish orqali shaxsiy va jamiyat manfaatini bir vaqtning o'zida ko'zlashni o'rganadi, shuningdek, sog'lom turmush odatlari, o'zini hurmat qilish va boshqalarga ham hurmat ko'rsatish kabi qadriyatlarni shakllantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil qilish jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf biologiya darslarida interfaol metodlardan, xususan **"Aqliy hujum"** va **xaritalash metodlaridan** foydalanish orqali ta'lim jarayonining tarbiyaviy samaradorligi o'rganildi. 8-sinf biologiya fanida "Oshqozon-ichak kasalliklari va ularning oldini olish" mavzusini tashkil etishning asosiy vazifasi sifatida, o'quvchilarning tarbiyaviy ko'nikmalarini yanada rivojlantirish.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshdi. An'anaviy darslarga nisbatan o'quvchilar mavzuga faol jalb etildi, erkin fikr bildirishga, savollarga mustaqil javob topishga va o'z fikrini asoslashga harakat qildilar. Ayniqsa, "Aqliy hujum" metodidan foydalanish o'quvchilarning shaxsiy tajribalariga tayangan holda fikr yuritishiga, muammoni hayotiy misollar bilan bog'lashiga imkon yaratdi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. O'quvchilar oshqozon-ichak kasalliklarining kelib chiqish sabablari, ularning oqibatlari va oldini olish choralari haqida nafaqat bilim oldilar, balki ushbu bilimlarni kundalik hayotda qo'llash zarurligini anglab yetdilar. Bu esa biologiya fanining tarbiyaviy imkoniyatlari to'laqonli namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Xaritalash metodidan foydalanish esa murakkab va ko'p tushunchalarni tizimli ravishda o'zlashtirishga xizmat qildi. Kasalliklar yirik guruhlariga ajratilib, ularning nomi, zararlangan a'zosi, sababi va belgilari mantiqiy ketma-ketlikda berilishi o'quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirdi. Natijada o'quvchilar asosiy tushunchalarni ikkinchi darajali ma'lumotlardan ajrata oldilar, mavzuni tezroq eslab qolish va qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tarbiyaviy jihatdan qaralganda, interfaol metodlar o'quvchilarda o'z salomatligiga mas'uliyat bilan qarash, gigiyena qoidalariga rioya qilish, sog'lom ovqatlanish va toza hayot tarzini tanlash kabi sifatlarni shakllantirdi. O'quvchilar muammoni jamoada muhokama qilish jarayonida bir-birini tinglash, hurmat qilish, hamkorlikda ishlash va umumiy xulosaga kelish ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Bu

esa ularning ijtimoiy faolligi va kommunikativ kompetensiyalarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Biologiya darslarida interfaol metodlardan maqsadli va tizimli foydalanish nafaqat bilimlarni chuqur o'zlashtirishga, balki o'quvchilarning tarbiyaviy sifatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, salomatlikka oid mavzularda bunday metodlar o'quvchilarda ongli intizom, sog'lom turmush tarzi va hayotiy mas'uliyatni shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi tajriba-sinov ishlari orqali tasdiqlandi.

Shuningdek, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan biologiya darslari ta'lim va tarbiya birligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda mazkur metodlarni keng joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

XULOSA

Oshqozon-ichak kasalliklari, ularning yallig'lanish va yuqumli turlari, sabablari, belgilari va oldini olish choralari haqida o'quvchilarni tizimli tarzda o'rgatish, ularning ilmiy tafakkurini, mustaqil fikrlash va sog'lom turmushga e'tiborini rivojlantiradi.

Xaritalash metodi asosida, asosiy so'zlarni boshqa rangda, tarkibiy qismlarni ko'k ruchkada va ustun shaklda yozish orqali ma'lumotlar vizual tarzda oson tushunarli bo'ladi, bu esa o'quvchilarda diqqatni jamlash, bilimni mantiqiy tizimlash va tez eslab qolish ko'nikmalarini shakllantiradi. Darsda bu metodni qo'llash nafaqat o'quvchilarni kasalliklarning kelib chiqish sabablarini tushunishga va profilaktika choralari o'zlashtirishga undaydi, balki ularning tarbiyaviy jihatdan mas'uliyat, gigiyena odatlari va sog'lom ovqatlanish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu usul dars vaqtini samarali ishlatish, ma'lumotlarni tartib bilan berish va o'quvchilarning mustaqil konspekt tuzish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Natijada, o'quvchilar nafaqat bilimga ega bo'ladi, balki sog'lom turmush tarzini qadrlash, jamiyatda faol va mas'uliyatli bo'lishni ham o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O.Movlonov, T. Tilavov, B. Aminov "BIOLOGIYA (Odam va uning salomatligi)". 8-sinf uchun darslik. "O'qtuvchi" Toshkent-2019.-190 b.

2. Dewey J. Democracy and Education. – New York, 2015. -188 b.
3. Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar asoslari.-Toshkent, 2018.-117b.
4. Abduqodirov A. Biologiya ta'limida tarbiya masalalari.-Toshkent, 2019-192 b.
5. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari: Avtoref.dis. ... ped.fan.nomzodi. Toshkent. 2011. - 24b.
6. B.Aminov, T.Tilovov "Odam va uning salomatligi" 8-sinf uchun darslik. Toshkent Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. 2001 yil. 128-131 bet
7. Jo'rayev R. Ta'limda interfaol metodlar. – Toshkent, 2020. -161 b.

www.ziyonet.uz

www.google.uz

www.biology.com

www.natlip.uz

www.pedagogy.uk